BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI O’YIN FAOLIYATI ORQALI KASBGA YO’NALTIRISH USULLARI

Yakubova Munisa Muratovna
Samarqand viloyati Pastdarg’om tumani 36-maktab
boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o’quvchilarini kasbga yo’naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar tahlil etilgan bo’lib, bu jarayonda o’qituvchining pedagogik mahorati, kasb tanlashga oid bilim va ko’nikmalari, vazifalari, shuningdek kasb tanlashda shaxs hislatlari, o’quvchi psixologiyasi, o’quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko’rsatuvchi mezonlar mazmuni haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: kasb,o’yin**,** ijodkorlik, yaratuvchanlik, metodlar, tajriba, mahorat.

Bugungi kunda umumta’lim maktablarining eng zarur hayotiy vazifalardan biri o’quvchi-yoshlarni kasb tanlashga to’g’ri yo’naltira olishdir. Bu sohada ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borish juda ham muhim hisoblanadi.Bolalarni kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo’ljal olishga o’rgatish zarur. O’qituvchining shaxsi - o’qituvchining ijodiy rivojlanishini, yuksak pedagogik mahoratini, ishda doimiy novatorligini, omilkorligini, bolalarga nisbatan muhabbat va hurmatini belgilab beradigan xislatlar majmuidir. Ayni shunday o’qituvchi o’quvchilarda o’ziga nisbatan hurmat-ehtirom, ishga havas tug’diradi, o’ziga o’xshash bo’lish, u bilan do’stlashish eng ezgu istaklar, istiqbol to’g’risidagi, o’z kasbi haqidagi orzularni baham ko’rish ishtiyoqini yaratadi. Boshlang’ich sinf o’qituvchisi sifatida shuni ayta olamanki,bolaga yoshlikdan to’g’ri bilim berib borilsa,bola hech qachon bilim olishdan bezimaydi.Shuning uchun har bir o’qituvchi bolaga to’g’ri bilim berishi,uning yosh xususiyatini inobatga olgan holda vazifalarni to’g’ri taqsimlay olishi va bu bilimlarni qiziqarli,hayotiy qilib yetkazib bera olishi kerak. Tarbiya jarayonida o’quvchining qobiliyatlari, bu qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari, u yoki bu kasb haqida muayyan ma’lumotga ega bo’lish, bolalar psixologiyasini hisobga olish talab etiladi. O’qituvchi o’quvchilarning turli o’quv predmetlarini, mehnat darslarida, mehnat faoliyatining xilma-xil turlarini egallash malakalarini shakllantirar ekan, maktab yoshlarini ijodiy mehnat qilishga tayyorlash uchun da’vat etganligini e’tiborga olish kerak. O’quvchining mehnatga munosabati tarzini belgilaganda ikkita asosiy shartdan kelib chiqish kerak:

- o’quvchida mehnat faoliyatining u yoki bu turiga nisbatan individual qobiliyatlar mavjudligini hisobga olishni:

- ishtiyoq bilan, ijodiy mehnat qila olish ko’nikmasi mavjudligiga ahamiyat qaratishni.

Agar o’quvchi topshiriqni osongina emas, ayni paytda ishtiyoq bilan, iloji boricha yaxshiroq natijalarga erishish istagi bilan bajargan taqdirdagina faoliyatining muayyan turiga barqaror munosabat haqida gapirish mumkin. Demak, o’quvchining mehnatga munosabatini faqat muntazam kuzatishlar negizidagina belgilash mumkin. Kuzatish jaryonida o’qituvchi quyidagi shaxs fazilatlariga e’tibor berishi kerak: intizomlilik; mehnatsevarlik; tejamkorlik; jamoatchilik; mehnat natijalriga o’zi baho berishi. O’qituvchi har bir dars jarayonida turli o’yinlardan foydalangan holda o’quvchilarni kasbiy qiziqishlarini aniqlab borishi va bolaning iqtidoridan kelib chiqqan holda shu kasbga yo’naltirib borishi ayni muddao bo’ladi.Bunda o’qituvchi har tomonlama o’quvchilarni yaxshi bilishi ularni qiziqishlarini anglab yetishi kerak. O’quvchilarni to’g’ri kasbga yo’naltirishda o’qituvchining o’rni ham kata ahamiyatga ega. O’qituvchi o’yinlar o’ynatish jarayonida ularni har birini alohida ko’zatishi va shu ko’zatishlari asosida kasbga yo’naltirishi lozim.Bilamizki o’yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san’atshunos olimlar diqqatini o’ziga tortib kelgan bo’lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. «Bolalar o’yini ko’p asrlik tarixga ega,- deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - U insonning o’zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan».

Yan Amos Komenskiy o’yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to’g’ri keladigan zarur shakli deb hisoblaydi. Uning fikricha, o’yin - bolaning barcha qobiliyat ko’rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o’yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi. Bola o’yin davomida tengqurlari bilan do’stlashadi. Y.A.Komenskiy o’yinga quvnoq bolalik va bolani uyg’un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o’yinlariga e’tiborli munosabatda bo’lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan edi. Shu tariqa o’yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo’lgan ijtimoiy faoliyatdir; o’yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o’zgarishi bilan uning mazmuni ham o’zgaradi; o’yin ma’lum maqsadga yo’naltirilgan ongli faoliyat bo’lib, uning mehnat bilan ko’p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O’yin faoliyati asosida boladagi o’quv faoliyati rivojlanadi.

O’yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o’zaro ta’sir etgan holda shakllanadi. O’ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to’g’risidagi tasavvurini, kattalarga va o’rtoqlariga bo’lgan munosabatini bilib olish mumkin.

Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o’yiniga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o’yinlar yaratilishi kerak.

Abu Rayhon Beruniy inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasini mehnatiga qarab turlarga bo’ladi. Og’ir

mehnat sifatida binokor, ko’mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm aqli-olimlar mehnatiga alohida e’tibor berish, hayrihoh bo’lishga chaqiradi, ularni ma’rifat tarqatuvchilar jamiyat ravnaqiga hissa qo’shuvchilar deb biladi. Beruniy bolalarni mehnatga o’rgatish metodlari, yo’llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshdan mehnatga o’rgatish kerak, deydi.

Shunday ekan, o’sib kelayotgan yosh avlodni kasb hunarga yo’naltirish, to’g’ri kasb egallashga yo’naltirish masalasi faqat hozirgi kunda emas balki azaldan hayotiy ahamiyatli, dolzarb muammolardan biri ekanligini ko’rishimiz mumkin. Farzandlarimizni erta yoshligidan boshlab qiziqishlari, moyillik va qobiliyatlarini e’tiborga olib ularni kasb hunarga to’g;ri yo’naltirsak, nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning ravnaqiga samarali ijobiy ta’sir qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Nabijonova D. O’quvchilarni kasbga yo’naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002.

2.Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so’z, 2010.

3.Nazarova, M. (2021). BOSHLANG’ICH TA’LIM O_ QUVCHILARINING PSIXIK TARAQQIYOTIDA INTEGRATSIYAVIY-INNOVATSION YONDASHUVLAR AHAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).

4.”SCIENCE AND EDUCATION”SCIENTIFIC JOURNAL /ISSN 2181-0842 APREL 2022 /VOLUME 3 ISSUE 4